

**TARBIYACHI IMIDJIDA -PEDAGOGIK KOMMUNIKATSIYA**

Rasulxo'jayeva Madina Axmadjonovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi pedagogika fanlari falsafa doktori

madinarasulxojayeva7@gmail.com

Nodirbekova Yulduz Bekzod qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi III bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi-pedagog faoliyatining eng muhim jihatlari bo'lgan "imidj" ni yoritib turuvchi kommunikativ sifatlarining shakllanganligi: pedagogik takt, pedagogik nazokat, nutqiy savodxonlik, nutqning to'g'riligi, nutqning mantiqiyliqi, nutqning tozaligi hamda uning odobi, ahloqi to'g'risidagi masalalar muhim o'rin tutishi xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik takt, pedagogik nazokat, nutqiy savodxonlik, nutqning to'g'riligi, nutqning mantiqiyliqi, nutqning tozaligi, odoq, ahloq, ekstravert, Introvert.

Аннотация: В статье рассматривается формирование коммуникативных качеств у педагогов-воспитателей освещающих «имидж», которые являются важнейшими сторонами деятельности в дошкольных образовательных организациях: педагогический такт, педагогическая деликатность, речевая грамотность, правильность речи, логика речи, чистота речи и обсуждается, что важны вопросы его манер и нравственности.

Ключевые слова: педагогический такт, педагогический такт, речевая грамотность, правильность речи, логичность речи, чистота речи, этикет, нравственность, экстраверт, интроверт.

Annotation: The article discusses the formation of communicative qualities in teachers-educators that highlight the "image", which are the most important aspects of activity in preschool educational organizations: pedagogical tact, pedagogical delicacy, speech literacy, correctness of speech, logic of speech, purity of speech and it is discussed that important issues his manners and morals.

Key words: pedagogical tact, pedagogical tact, speech literacy, correctness of speech, logic of speech, purity of speech, etiquette, morality, extrovert, introvert.



Pedagog odobi eng avvalo, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Biroq bunday yondashuv bir qadar cheklangan nuqtai nazar ekanligini ta’kidlash joiz. Zero, tarbiyachining kasbiy axloqi faqat tarbiyalanuvchilar bilan muloqoti jarayonidagina namoyon bo‘lmaydi, balki uning butun faoliyati davomida birinchi darajali ehtiyoj sifatida ifodalanadi. Boshqacha aytganda, pedagog odobi tushunchasi tarbiyachi dunyoqarashining hayotiy tizimini anglatadi. Pedagog odobi tushunchasining mazmuni axloqiylik bilan birga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy jihatlarni ham o‘z ichiga qamrab oladi.

Axloqiy ta’lim-tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishda ikki yo‘nalishdagi aloqador tushunchalarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir: birinchisi–jamiyatning pedagog shaxsiga munosabati; ikkinchisi–o‘qituvchi shaxsining jamiyatga munosabati.

Pedagog odobining mohiyati, asosiy mazmuni pedagogik faoliyat uchun muhim bo‘lgan axloqiy sifatlarda ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar barcha kishilar, hamma kasb egalari, jumladan, pedagog-tarbiyachilar uchun ham juda zarurdir.

Axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, fe’l-atvorini tartibga solib turuvchi axloqiy qoidalar, normalar, talablar, mezonlar shaklida ifodalanadi. Axloq normalari davlatning turli qonunlari bilan amalga oshiriladigan huquq normalaridan farq qilib, ommaviy odat va namuna kuchi, jamoatchilikning fikri ta’sirida yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy voqelik shaxs oldiga ma’lum axloqiy talablar qo‘yadi, bu talablar axloq normasi, axloqiy fazilatlar shaklida ifodalanadi. Jamiyat o‘z faoliyati va istiqboli uchun xizmat qiladigan axloq normalari, talablari, mezonlarini belgilaydi.

Pedagog umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlarni o‘zlashtirib olishi, tajribada qo‘llashi, o‘zining dunyoqarashi, mafkurasi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslash lozim. Fikrlash va his etish, turmushda sinab ko‘rish natijasida umuminsoniy va milliy-axloqiy sifatlari, qoidalar, normalar o‘qituvchining o‘z axloqiy fazilatiga, e’tiqodiga aylanadi. Bular muallimning dunyoqarashi, fikr va mulohazalari bilan qo‘shilib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish sharoitida uning o‘rni va rolini belgilaydi.

Pedagog odobining normalari har bir muallimning shaxsiy fikriga, axloqiy fazilati va e’tiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy e’tiqod va sifatlari pedagogning dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarida, tinglovchilar, ota-onalar va boshqa kishilar bilan muomala, munosabatlarida, kundalik turmushda o‘zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta’sir o‘tkazishida ko‘zga tashlanadi.

**Pedagogik takt pedagog axloqining amaliy ko‘rinishlaridan biridir.**

Muallim xulqining natijalari uning yoshlarga ma'naviy-axloqiy ta'sirining samaradorligida, axloqiy tarbiya sohasida erishgan yutuqlarida namoyon bo'ladi.

Pedagog odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar, tushunchalariga mos keladi va ularni pedagogik faoliyat bilan bog'liq tarzda bir qadar oydinlashtiradi, aniqlaydi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, baynalmilalchilik, adolat, yaxshilik qilish, burch, qadr-qimmat, mas'uliyat, vijdon, halollik, rostgo'ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar pedagog odobida pedagogik faoliyati bilan bog'liq ravishda tahlil qilinadi. Ta'lim oluvchilarga yaxshilik qilish, pedagogik burchi, pedagogik sha'ni, qadr-qimmat, pedagogik mas'uliyati, pedagogik vijdoni, talabchanlik va adolatli bo'lish, pedagogning ma'naviy qiyofasi halolligi, pokligi, rostgo'yliги kabilar pedagog axloqining muhim fazilatlarini hisoblanadi. Ularni chuqur va puxta o'zlashtirish bo'lajak tarbiyachi-pedagog uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachining tarbiyalanuvchilar muhitiga uzviy ravishda qo'shib keta olishi nihoyatda qiyin jarayon. Lekin uning pedagogik faoliyati bevosita tarbiyalanuvchilar orasida olib boriladi. O'zaro munosabatlarni ishonch va do'stlik tuyg'ulari bilan mustahkamlab borish tarbiyachidan jiddiy psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Buning uchun tarbiyachi, avvalo, turli xarakterdagi tarbiyalanuvchilardan iborat bo'lgan, guruh jamoasida tez-tez o'zgarib turadigan pedagogik vaziyatlarga darhol o'z munosabatini bildirishi va unga odilona baho berishi kerak. U tarbiyalanuvchi xatti-harakatini to'g'ri idrok etishi, vaziyatlarni oldindan ko'ra bilishi, tarbiyaviy metodlarni o'z o'rnida qo'llashi, tarbiyalanuvchi bilan muomalada bosiqlik, sabr, milliy an'ana va turmush tarzimizdan kelib chiqqan muruvvat va himmat, odamiylik va mehr-oqibat tuyg'ularini ko'rsata olishi shart. Bu vazifalar Tarbiyachining zimmasiga yuklanadigan va u rioya qilishi lozim bo'lgan pedagogik nazokat deb atalmish faoliyatning zarur shartidir.

Pedagogik nazokat - tarbiyachi axloqiy-ma'naviy qiyofasini namoyon etuvchi me'yor tuygusi yoki xulq va odob qoidalariga rioya qilishi demakdir. *Pedagogik nazokat* tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan o'zaro munosabatini tashkil qilish vositasi. Psixologik jihatdan qaralganda, nazokat insonning bir qolipdagi barqaror tasavvurlarida mujassamlashgan shaxsiy insoniy xislatlarining yigindisidir.

Pedagogik nazokat me'yorlari tarbiyachidan, avvalo, komil insonga xos xislatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Zero, ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishning asosiy maqsadlaridan biri komil inson tarbiyasi bo'lib, u davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilingan. Ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori



bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish tarbiyachi zimmasida. Shunday ekan, hozirgi demokratik jamiyat tarbiyachisi o'zi avvalo mukammal bilimlar sohibi, yetuk insoniy fazilatlar egasi bo'lishi zarur. Tarbiyachi xulq-atvorida pedagogik nazokat ma'lum bir muddatda shakllanib tugaydigan jarayon emas, uning omillari ham jamiyat taraqqiyoti natijasida uzluksiz sayqallanib boradi:

- pedagogik nazokat tarbiyachining butun pedagogik faoliyatida sayqallanib takomillashib boruvchi jarayon;
- pedagogik nazokat, odatda, tugallangan shaklga ega bo'lmay, insoniy fazilatlar evaziga uzluksiz boyib boradi;
- Tarbiyachi pedagogik nazokatning tarkibiy qismlarini ijtimoiy muhitga va odamlarning yashash tarziga, urf-odatiga qarab o'zgartirishi mumkin;
- tarbiyachi pedagogik nazokatning nozik qirralarini chuqur egallashga doimo intilishi talab etiladi;
- pedagogik nazokatni tarbiyachi har bir tarbiyalanuvchi bilan o'zaro munosabatda o'zi uchun eng qulay shaklga keltirib, ma'lum bir muvozanatda saqlashi lozim. Tarbiyachi pedagogik nazokatga ta'lim va tarbiya jarayonidagi har bir vaziyatga adolatli baho berishi bilan, tarbiyalanuvchining xatti-harakatini to'g'ri idrok etishi, sabot, o'zini tuta bilish, sabr-toqat, sezgirlik, vijdon, oriyat kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi bilan erishadi. Tarbiyachinning tarbiyalanuvchi bilan muomalasi, pedagogik faoliyatda o'z kasbini sidqidildan sevishi, halolliqi, rostgo'yliqi, axloqiy pokligi, odamiyligi, kamtarligi pedagogik nazokatning zarur talabidir. O'z kasbini sevgan tarbiyachigina butun kuch - g'ayratini, qalb nuri va dil haroratini shu ishga bag'ishlaydi va o'z faoliyatida yaxshi natijaparga erishadi. Bolalarni sevish, ularga mehr-muhabbatli bo'lish tarbiyachi ma'naviy-axloqiy qiyofasida muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachining mehribonligida talabchanlik va qattiqqo'llik xislatlari mujassamlashgan bo'lishi kerak. Tarbiyachi deyarli har kuni tarbiyalanuvchi bilan uchrashadi, savol-javob qiladi, ularning yaxshi xulq va ezgu ishlarini ma'kullaydi, rag'batlantiradi, nojo'ya xatti-harakatlari uchun tanbeh berib, lozim bo'lganda tarbiyaviy metodlarni qo'llaydi. Pedagogik nazokat doimiy izlanishni, ijodkorlikni talab qiladi. Doimiy ijodiy izlanishda bo'lgan tarbiyachi tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi, ilm-fan muammolari, tarbiya etikasi va psixologiyasi yuzasidan erkin fikr yurita oladi. Xullas, bo'lajak tarbiyachi pedagogik odob va axloq qoidalarini o'zining dunyoqarashi va axloqiy tajribasi bilan boyitib borishi zarur. Tarbiyachi tarbiyalanuvchining kattalar bilan muloqotga kirishish tizimiga ma'lum darajada



kirib borib, ularning ichki qoidalarini o'rganishga harakat qilishi kerak. Bu narsa tarbiyalanuvchilar bilan suhbatlashish orqali, fe'l-atvorini o'rganish, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlarni kuzatish, ular hayotidagi turli voqealar va muammolarni birgalikda ta'hir qilish, ular muhitida ro'y berayotgan hodisalarga nisbatan fikr-mulohazalarini bilish asosida amalga oshadi. Bunda u tarbiyalanuvchi jamoasida ro'y berib turadigan, tashqi tomondan kuzatganda aslo bilib bo'lmaydigan yashirin hodisalar va voqeaparni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada tarbiyachi ta'lim-tarbiyaviy jarayonda o'z oldida turgan vazifalarni hal etishda tarbiyalanuvchining o'zlarini ham jalb qila oladi

Ijoiy natijalarga erishish uchun, Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning ishonchini qozona olishi shart. Tarbiyalanuvchi "do'stlar ishonchini qozonish yoki ishonchiga kirish"i uchun tarbiyachi pedagogik nazokat imkoniyatlarini o'z o'rnida qo'llay olishi lozim. O'zaro ishonch munosabatlari o'rnatilgach, tarbiyalanuvchi og'ir damlarda tarbiyachidan yordam so'rab murojaat qiladilar, o'z mulohazalarini u bilan fikrlashadilar. O'zaro ishonch norasmiy munosabatlarda ham tarbiyachiga tarbiyalanuvchining ba'zan anglab bo'lmaydigan ichki dunyosini ko'rish imkoniyatini beradi. Tarbiyalanuvchi bilan munosabatlarda pedagogik nazokatni qo'llash natijasida:

- tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning xarakterini, ichki dunyosini yaxshi bilib oladi, shundagina tarbiyalanuvchilar bilan munosabatda xushmuomalali bo'lish imkoniyatlari paydo bo'ladi;
- tarbiyachi tarbiyalanuvchi bilan chin ko'ngildan bir-biriga yaqin bo'ladi, ba'zi daqiqalarda eshitmasligi kerak bo'lgan ularning gaplarini eshitmasdan o'tib ketishi mumkin, negaki o'zgaralar gapini tinglash odobsizlikdir;
- tarbiyachi xamisha tarbiyalanuvchilar jamoasining kundalik ishlarida rahbarlik xissini anglab turishi, jamoada ro'y beradigan ba'zi ko'ngilsiz hodisalarni ijobiy hal etish vazifasi zimmasiga yuklatiladi.

Har qanday mutaxassis odob va axloq namunalariga ega bo'lishi tabiiy, lekin pedagogik nazokat va odoblilik mutlaqo o'zgacha harakatni va muomalani talab qiladigan mahoratdir. Chunki bu xislatlar faqatgina pedagogik qobiliyat va iste'dodga ega bo'lgan tarbiyachida yillar davomida shakllanadi.

Tarbiyachi nazokatida dilkashlik va pedagogik takt Pedagogikada axloq va odobning muhim xususiyatlaridan biri bo'lmish dilkashlik insonning atrofdagi odamlar bilan barqaror, yaqin munosabatda bo'lishga intilishi deb ta'riflanadi. Bu intilish Tarbiyachining tarbiyalanuvchi va atrofidagi kishilar bilan tez aloqa o'rnatish olishi va belgilangan maqsadga erishishini ta'minlaydi. Albatga, bu jarayon



birdaniga sodir bo'lmaydi, ayniqsa, yosh tarbiyachilardan psixologik bilim, kishilar bilan muloqotda xushmuomalalik, ehtiyotkorlik talab qilinadi. Psixologlar tarbiyachining dilkashlik xususiyati ikki toifadagi odamlar xarakterida mujassamlashgan deb ta'kidlaydilar:

Birinchi, ekstravert shaxslar: Ular barcha ishlarda faol, jidsiy va vazmin, osoyishtalikka va tashqi ta'sirchanlikka moyil kishilardir. **Ikkinchi, introvert shaxslar:** Ular faqat o'z ichki olamiga beriluvchan, atrofidagi odamlarga aralashmaydigan, o'z-o'zini nazorat qilishga, doimo ichki xavotirga moyil kishilardir.

Pedagog olimlar tarbiyachining dilkashligi ekstravert yoki introvert xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar xarakterining birlashuvida paydo bo'lishini ta'kidlaydilar. Biroq, ko'pincha, pedagogikada ekstravert tipdagi shaxslar dijash insonlar sifatida e'tirof etilganlar.

Tarbiyachida ushbu xislatlarning mavjudligi, uning pedagogik nazokat qoidalariga rioya qilib dilkashlik xususiyatlarini rivojlantirishi pedagogik mahorat sirlarini takomillashtirish zamini va shartidir. Dilkashlik munosabatini doimiy ravishda o'z kasbiy faoliyatida mujassamlashtirgan *tarbiyachi quyidagilarni unutmashligi kerak:*

- bolalar jamoasiga nisbatan bir qolipdagi fikrlarning muayyan tizimiga ega bo'lishi;
- birorta ham tarbiyalanuvchisini yomon xulqga ega bo'lishiga, ularning hurmat-e'tiborini qozonmasligi mumkin emasligiga ishonch hosil qilishi;
- biror tarbiyalanuvga nisbatan ishonchsizlik, salbiy munosabat guruh jamoasi bilan o'zaro yaxshi munosabatni yo'lga qo'yilishida rahbarlik qilishni bilishi;
- guruh jamoasida sodir bo'ladigan kulgili vaziyatlarda tarbiyachining o'ta jiddiy va qat'iy bo'lishi jamoadagi qaltis ahvolni murakkablashtirib yuborishini unutmashligi;
- har bir tarbiyalanuvchiga beriladigan xolisona va adolatli baho (ijobiy yoki salbiy) tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi munosabatni mustahkamlaydigan ko'prik ekanligini unutmashlik. Tarbiyachining kasbiy pedagogik faoliyatida dilkashlik fazilati bolalar jamoasi bilan qizg'in, muvaffaqiyatli muloqotga kirishib ketishida namoyon bo'ladi. Avvalo, Tarbiyachi o'zining kasbiy-pedagogik dilkashlik fazilati haqida va uning nima ekanligini va tarkibiy qismlari nimalardan iborat ekanligi to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lishi lozim.

Avvalo, tarbiyachi o'zining kasbiga xos bo'lgan shaxsiy fazilatlar nuqtai nazaridan e'tibor berib, dilkashlikning qanday jihatlarini o'zida shakllantirish



lozimligini aniqlash, va o'z-o'zida kommunikativ ya'ni muloqotchanlik xislatlarni tarbiyalashning shaxsiy rejasini tuzishi kerak.

Pedagogik kommunikatsiyaning tarbiyachi kasbiy faoliyatidagi ahamiyati shundan iboratki, unda tarbiyachining yuksak kommunikativ madaniyati qay darajada ekanligi namoyon bo'ladi. Tarbiyachining kommunikativ madaniyati o'z navbatida, turli pedagogik vaziyatlarda paydo bo'ladigan oddiy insoniy dilkashlik xususiyatiga tayanadi. Har birimizda, o'z shaxsiy muloqotimizning va o'zgalarning biz bilan olib boradigan shirin xushmuomalali muloqotidan ko'plab ajoyib taassurotlar xotiramizda saqlanadi. O'zaro muomalada dilkashlik fazilatlarini namoyish etadigan ko'plab pedagog ustozlarni bilamiz. Ular har qanday vaziyatlarda kishilar bilan bemalol muloqotga kirishib keta oladilar. Biroq, muloqotda butun suhbat jarayonini faqat o'ziga qaratib, kommunikatsiyaning qoq markazida faoliyat ko'rsatishni istovchi tarbiyachilar ham bor.

Tilni, uning qonun-qoidalarini yaxshi tushunish, aniq, ravshan ifodali nutq tuza olish, tilning ifodaviy vositalaridan mazmuniga, uslubiga ko'ra nutqiy vaziyatga qarab o'rinli foydalana olish mahoratidir.

Nutqiy savodxonlik mustaqil fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash san'atidir. Bu ko'nikmalarni shakllantirish avvalombor o'zbek tilining so'z boyligini o'rganish, so'zlarning ma'nodosh shakllarini va ularning zid ma'nolarini topa olish, yozma matn mazmuni, ma'no qirralari, sintaktik va grammatik munosabatlarini aniqlashda tinish belgilarining ahamiyatini o'rganish, ma'nodosh so'zlarni nutq uslublari maqsadidan kelib chiqib tanlash, gaplarning, matnlarning asosiy va yordamchi bo'laklarini aniq ajrata olish malakasiga bog'liq.

Insoniy muomala-munosabatning debochasi salom-alikdir. Suhbat va nutq odobi salom-alikdayoq ko'rinib qo'ya qoladi. Zero, salom-alik odob-axloqning birlamchi belgilaridandir. Sharqda salom alikning o'ziga xos odobi va qoidalari shakllangan. Unga ko'ra, quyidagi sharoitlarda insonlar bir-birlari bilan salom-alik qilishlari vojib. Avvalo, do'stu birodarlar bir-birlarini ko'rganlarida salom-alik qilishlari shart. Ikkinchidan, yo'lda yurganda, odamlarga salom berish kerak. Keyingi paytlarda, ayniqsa, katta shaharlarda bu odatga amal qilinmay qoldi. Uchinchidan, birodarining eshigiga yetganda, salom berish joiz. To'rtinchidan, o'tirishlar, yig'inlarga, to'y-ma'rakalarga borganda, hozir bo'lgan jamoaga salom berish lozim. Beshinchidan, agar kishi bir yerda o'tirgan bo'lsa va o'rnidan turib ketadigan bo'lsa, qolganlarga salom deyishi lozim. Bu xayrlashuv salomi bo'ladi. Oltinchidan, qabristonga yaqinlashganda salom berish vojib. Yettinchidan, inson o'z



uyiga kirganida, xonadon ahliga salom berishi kerak.

Sharqona axloq va hayotiy vaziyatlardan kelib chiqib, shakllantirilgan salom berish odobiga binoan, salom beruvchi kishi pok bo'lishi kerak: otliq yoki boshqacha ulovdagi odam yayov kishiga salom bermog'i joiz; yoshi kichik odam yoshi ulug' odamlarga birinchi bo'lib salom bermog'i lozim; salom berayotgan odamning chehrasi ochiq va xursand bo'lsa, u boshqalarga ham xushnudlik bag'ishlashi, borgan davrasiga fayz kiritishi mumkin; ishora yoki imo (boshni qimirlatib, qo'lni ko'krakka qo'yib) emas, balki ovoz chiqarib: «Ac salomu alayka» yoki «salomu alayk» desin va agar jamoatchilik bilan ko'rishayotgan bo'lsa, «Acsalomu alaykum» deb aytish odobdandir; ikki kishi bir-biriga yaqinlashganida, qo'l berib ko'rishmog'i ma'qul, chunki bu do'stlikni bildiradi.

Pedagoglarga tavsiyamiz shuki, ular nimani gapirish har doim ham zarur bo'lavermasligini va qanday gapirish doimo lozimligini unutmasinlar. Eng qimmatli g'oya, fikr, dastur ham, agar mahoratsiz ifodalansa, o'zining qiymatini yo'qotadi; mabodo takrorlanaversa, tinglovchini zeriktirib qo'yadi. Demak, fikrning aniqligi va ravshanligi ifodaning ham shunday bo'lishini ta'minlaydi. Donolar talqinicha, til, so'z, nutq ravshanligi fikr, hatto tafakkurning shunday bo'lishi oqibatidir; ravshan fikr esa o'z shakli ifodasi ham ravshan bo'lishini taqozo etadi. Notiq nimani aniq tasavvur etolmasa, uni chalkash gapiradi; noaniq ifoda faqat shunday fikrning namoyon bo'lishidir.

Oddiygina, ya'ni hammabop, aniq-ravshan, osongina tushunib, eslab qoladigan qilib so'zlayotgan notiqqa taqlid etish (ergashish) avvaliga juda osondek tuyiladi; ammo aslida bundan qiyinroq ish yo'q. Pedagog miyasiga aniq fikr kelsa, u ravshan so'zlaydi, ammo bu fikrni ongiga singdirib olsa, yanada ravshanroq gapiradi. Pedagog fikridagi xatolar, noaniqliklar nutqdagi xatolarni, ular esa, o'z navbatida, ishdagi, amaldagi xatolarni keltirib chiqaradi, ta'lim oluvchilarni chalg'itadi. Pedagog tilining go'zalligi, birinchi navbatda, uning aniqligi va mazmundorligidadir. Oddiygina qilib, ravshan bayon etish mumkin bo'lmagan hech bir fikr, g'oya yoki ta'limot yo'q. Binobarin, aniqlik nutqning asosiy fazilatidir.

Pedagogning tili, so'zi qanchalik oddiy bo'lsa, shunchalik ravshan bo'ladi, so'z qanchalik o'z o'rnida ishlatilsa, nutqni shunchalik kuchli, jozibali va ishonchli qiladi. Buyuk aql sohiblarida oz so'z bilan ko'p ma'no berish xislati mavjud bo'lgani kabi mohir notiq, ustasi farang pedagog ham "oz so'zlayu, soz so'zla", degan maqolga amal qiladi. Ma'qul so'zlasang, hech qachon ko'p so'zlamaysan, agar uzayib ketsa, eng yaxshi nutq ham tinglovchini charchatadi, degan hikmatlarga rioya qilish eng yaxshi fazilatlardandir.



Bunday notiqlar – notiqlik javohirining xuddi o‘zginasi: salmog‘iga qarab nur taratadi. Ular asl donolik qisqa ifodalanadi, degan qoidaga bo‘ysunadilar. Ulug‘ dramaturglardan biri aytganidek, gap kam joyda uning salmog‘i ko‘p bo‘ladi. Qisqa, lekin ifodali ibora bir bor eshitib anglanadi, tinglovchi xotirasida muhrlanib, uning shioriga aylanadi, uzundan-uzoq mulohazalarda esa bunday bo‘lmaydi.

Nutq madaniyati va notiqlik san‘ati tarixiga murojaat qilsak, bu mahoratlarda notiqning bilim doirasi hal etuvchi omillardan biri bo‘lganiga ishonch hosil qilamiz. O‘z nutqi ob‘ektini yaxshi bilgan, uning mohiyatini puxta anglagan, mavzuni chuqur fahmlagan voizning nutqi muayyan salmoqqa va muqarrar samaraga ega bo‘ladi. Pedagog, nutq so‘zlayotganda mustahkam ishonch bilan gapirsa, so‘zlar ham quyilib kelaveradi, tinglovchilarni beixtiyor mahliyo etadi. Uning fikri qancha teran bo‘lsa, so‘zlar ham shu qadar jarangdor, ishonarli bo‘ladi. Chiroyli gapirishdan ko‘ra o‘rinli, ishonarli gapirish ma‘qulroq. Yurakdan buloqdek otilib chiqqan ma‘naviyat kuchi ehtiros bilan qo‘shilsa, pedagogni notiqqa aylantiradi. Bilimdon notiq o‘z fikrini qat‘iy ishonch bilan, dangal aytadi. Nutq so‘zlaganda, ma‘ruza o‘qiyotganda ortiqcha so‘zlar, kirish gaplar, shuningdek, gumonsirash, ishonchsizlik, hadiksirash, esankirash, asabiylashish, g‘azablanishga aslo yo‘l qo‘ymaslik zarur.

Nutqning to‘g‘riligi. Nutqning to‘g‘ri bo‘lishi asosan ikki me‘yorga urg‘u va grammatik me‘yorga amal qilishni taqozo etadi. Nutq jarayonida ma‘noni to‘g‘ri anglatish uchun so‘zdagi bo‘g‘in, gapdagi so‘z urg‘usining to‘g‘ri ishlatishiga e‘tibor qilishimiz lozim bo‘ladi. Nutq qurilishining grammatik shakllarini farqlay olish so‘zlarni mazmuniy bog‘lanishlariga qarab joylashtirish grammatik me‘yorlarni belgilar ekan, nutqning to‘g‘ri ifodalanishi uchun gap tuzish qoidalarini o‘zlashtirish, o‘zak va qo‘shimchalar o‘rtasidagi munosabatlarni, ega-kesim mosligini, ikkinchi darajali bo‘laklarning ularga bog‘lanish yo‘llarini yaxshi anglash lozim bo‘ladi.

Nutqning aniqligi. Aniqlik ham nutqning asosiy kommunikativ sifatlaridan biridir. Agar to‘g‘rilik nutqning yuzaga kelishida faqat til omili zaruriy belgisi sifatida qaralsa, nutqning aniqligi deyilganda uning shakllanishiga xizmat qiladigan, tildan tashqarida bo‘lgan omillarni ham nazarda tutish lozim bo‘ladi. Bunda dastlab til va tafakkur munosabati turadi. Chunki, tabiat va hodisalar o‘rtasidagi mutanosiblik va uning nutqda aks etishi ana shu aniqlikning xuddi o‘zidir.

Nutqning mantiqiyliigi. Nutqning mantiqiyliigi uning asosiy sifatleri—to‘g‘rilik va aniqlik bilan chambarchas bog‘langandir. Chunki grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifoda etish uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan leksik birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va ta‘lim oluvchiga ifodalanayotgan fikrning to‘liq borib yetmasligiga,



ba'zan umuman anglashilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Nutqni shakllantirishdagi e'tiborsizlik oqibatida ba'zan mantiqsizlik ham yuz beradi.

Nutqning tozaligi. Nutqning tozaligi deganda unda til elementlarining ishlatilishida adabiy til me'yorlariga amal qilish-qilmaslik tushuniladi. Yaxshi, namunaviy nutq hozirgi o'zbek adabiy tiliga, uning talablariga mos holda shakllangan bo'lishi, turli g'ayriadabiy va g'ayriaxloqiy til elementlaridan holi bo'lishi kerak. Chunki u boy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga ega bo'lgan va bugun mustaqillik davrida yashab, dunyo hamjamiyati bilan teng mavqeda muloqotda bo'layotgan o'zbek xalqining madaniy darajasiga mos bo'lishi lozim.

Nutqning ta'sirchanligi. Nutqning ijro etilishida unga ma'lum bir voqea-hodisa haqida ma'lumot berishdan tashqari yana bir maqsad tinglovchi ongiga va ruhiyatiga ta'sir etish vazifa qilib qo'yiladi. Shuning uchun ham ta'sirchanlik nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi hamda to'g'rilik va aniqlik ham, mantiqiylik va tozalik ham suhbatdoshga, tinglovchiga yoki ta'lim oluvchiga ta'sir etishiga qaratilgan bo'ladi. Bu sanab o'tilgan xususiyatlarda til omillari birinchi o'rinda tursa, ularning barchasidan foydalangan holda ta'sirchanlik keng doirada tildan tashqaridagi omillarni ham qamrab oladi. Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan, og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va shuning uchun uning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyatni e'tiborga olish ham muhim sanaladi. Nutqning shaxslarga qanday ta'sir qilishida va ularda qanday taassurot qoldirishida notiqning nutqiy jarayon davomida o'zini qanday tuta bilishi, jest va mimikalari, hatto kiyinishi kabi omillarning ham ahamiyati bor. Samimiylilik, xushmuomalalik, odoblilik, auditoriyaga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning tinglovchilar tomonidan e'tibor bilan tinglanishiga sabab bo'ladi. Nutqning ta'sirchanligi, ifodaliligi haqidagi gap, ma'lum ma'noda, nutq sifatlari haqida aytilgan mulohazalarga yakun yasashdir. Chunki yaxshi nutqning fazilatlarini ko'rsatib o'tish, nutqda uchraydigan ayrim tipik xatolarni tahlil etishda natijada ta'sirchan bir nutqni shakllantirishga xizmat qiladi.

Nutqning mazmuni qanchalik boy, chuqur bo'lsa, uning shakli ham shunchalik rang-barang bo'lishi unga munosib jilo, sayqal berilishi, badiiy bo'yoqlar bilan jozibali qilinishi, tasvirlar bilan boyitishi darkor. Buning uchun hikmatli so'zlardan, maqol, she'riy parchalardan, o'tkir iboralar, tasvir, qiyos va o'xshatishlardan keng ko'lamda, biroq me'yorida foydalanishni tavsiya etamiz. Bular nutqning bezagi, ko'rki, sayqalidir. Notiq, shu bilan birga, satira, yumor, istiora, majozlardan o'z o'rnida, badiiy talaffuz bilan, shoirona ko'tarinki ruhda ishlatsa, uning nutqi tinglovchini o'ziga maftun etadi, gapi "shirali" bo'ladi, nutqi qiyomiga yetadi,



tasanno va ofarinlarga sazovor bo'лади. Xulosa shuki, ma'ruza ilmiy, ishonarli, mantiqan izchil, mazmunan boy, shaklan rang-barang bo'lsagina, unga qo'yiladigan eng asosiy talabga javob bera oladi. Pedagog nutqiga qo'yiladigan talablardan biri shuki, nutq matni badiiy jihatdan puxta, tili adabiy, so'zlari jarangdor, jumalari yoqimli, gaplari lo'nda, lekin mazmuni chuqur, ma'no teran bo'lishi kerak.

Pedagog tarbiyachi tabiyalanuvchilarini qiziqtirish, ularga badiiy oziq berish uchun o'tkir ibora, maqol, ruboiy, hikmatli so'z, ifodali tavsiflardan zeb beruvchi vositalar sifatida foydalansin.

Nutq badiiy bo'lishi lozim, degan tavsiyadan u balandparvoz, dabdabali gaplardan, yasama iboralardan, iste'moldan chiqqan so'zlardan iborat bo'lsa ham mayli, degan xulosa kelib chiqmaydi. Xodimlarning nutqi ravon bo'lishi uchun har bir gapning so'zlari muayyan tartibda joylashishi zarur. Oldin gapning egasi, so'ng uning ikkinchi darajali bo'laklari, oxirida esa kesimi aytiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ubayevna, R. X. (2023). БАТАРЕЙКАЛАР ВА УЛАРНИНГ БОЛА НАЙОТИДАГИ САЛБИЙ ТА'СИРИ. Лучшие интеллектуальные исследования, 7(1), 83-88.
2. Ризаева, Х. У., & Искандаров, Н. Р. (2023). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРДА МЕХНАТ ТАРБИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Лучшие интеллектуальные исследования, 7(1), 89-98.
3. Rizayeva, X. (2022). МАКТАБГАЧА YOSHDAГИ БОЛАЛАРДА МИЛЛИЙ QADRIYAT TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILA VA MAHALLANING ROLI. Science and innovation, 1(B8), 2165-2168.
4. Rizayeva, X. U. (2022). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARINING KUNDALIK TA'LIMIY FAOLIYATI DAVOMIDA МИЛЛИЙ QADRIYAT TUSHUNCHALARINI БОЛА ONGIGA SINGDIRILISH DARAJASI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(4), 129-134.
5. Расулхожаева, М. А. (2012). Роль воспитателей в формировании нравственных качеств у детей старшего дошкольного возраста посредством знакомства с животным миром. Молодой ученый, (7), 314-316.
6. Расулходжаева, М. А. (2022). КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГА ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ. Национальная ассоциация ученых, (80), 30-32.



7. Rasulkhujueva, M. A. (2019). Educator's Role in Forming Moral Qualities Senior Preschool Age Children by Introducing Animal World. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
8. Ширбачеева, Г. Ш. (2020). Качество работы дошкольной образовательной организации зависит от руководителя. *Управление дошкольным образовательным учреждением*, (2), 46-51.
9. Ширбачеева, Г. Ш. (2021). УПРАВЛЕНЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ РУКОВОДИТЕЛЯ ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В СФЕРЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ НАЧИНАЮЩИХ ПЕДАГОГОВ. In *Современная наука. XXI век: научный, культурный, ИТ контекст* (pp. 303-308).
10. Ширбачеева, Г. Ш. (2019). К проблеме качества образования в дошкольном учреждении. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY* (pp. 33-39).
11. Ширбачеева, Г. Ш., & Халилова, Г. В. (2020). Педагогическое мастерство воспитателя. *Управление дошкольным образовательным учреждением*, (5), 74-79.
12. Ширбачеева, Г. Ш. (2019). Роль руководителя в адаптации новых сотрудников дошкольного образовательного учреждения. In *Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации* (pp. 88-89).